

Qorako‘l tuman axborot – kutubxona markazi

Axborot – bibliografiya xizmati



Kutubxonalar – madaniy hayotimiz ko‘rki

(Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining
155-yilligiga bag‘ishlab)

Tavsiya ro‘yxati

Qorako‘l – 2025

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasiga 1870- yilda asos solingan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 -yil 20-fevraldagi PF-3029-son «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoniga muvofiq Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat kutubxonasi va Respublika ilmiy-texnika kutubxonasi negizida tashkil qilingan Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi uzoq tarixga ega. Turkiston general gubernatori K.P.Kaufman 1867-yil 16- avgustda Xalq maorifi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Ommaviy kutubxonaga, Geografiya jamiyatiga, Rossiya Bosh shtabiga kutubxona tashkil etishga va kitob omborlaridan dublet nusxali nashrlarni berish bilan yangi kutubxona asosini yaratishga yordam berishni so‘rab murojaat qildi. Shu davr kutubxona tarixining boshlanish davri edi. 1870-yil mayida bo‘lajak Toshkent ommaviy kutubxonasining yadrosini tashkil qilgan 2200 dan ko‘proq jild (200 nomdagi) nashr yig‘ilgan edi, bu ommaviy kutubxonani ochishga imkon berdi. O‘lkaning katta bilimdoni va kuchli Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va madaniy-ma‘rifiy muassasa bibliofi, kutubxonaning birinchi direktori N.V.Dmitrovskiy (1841– 1910) o‘zining serg‘ayrat faoliyati bilan Toshkent ommaviy kutubxonasi tarixida uning ravnaqi uchun muhim rol o‘ynadi.

Kutubxona faoliyat ko‘rsata boshlagan davrda kitobxonlarning asosiy qismini harbiylar tashkil etgan. Kutubxona Markaziy Osiyo mintaqasidagi yirik va qadimgi kitob saqlash maskanlaridan biri bo‘lib, 28 nomdagi turli noan‘anaviy xizmatlarni ko‘rsatadi. Metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to‘plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi, butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O‘zbekistonga va uning milliy manfaatlariga ta‘luqli hujjatlarning universal fondini yig‘ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Noyob va nodir nashrlar fondi kutubxona kitob kolleksiyasining faxridir, u 250 mingdan ortiq nashrdan iborat. Ularning 15 mingdan ortig‘i nodir kitoblar hamda qo‘lyozmalardir. Kutubxonaning o‘ta noyob to‘plamida O‘rta Osiyoning 1917-yilgacha bo‘lgan tarixi, etnografiyasi, madaniyati va geografiyasiga oid o‘ziga xos ensiklopediya bo‘lgan 594 tomlik noyob «Turkiston to‘plami» hamda A.P.Kun tuzgan 4 qismdan iborat 10 tomlik 1200 noyob fotosuratlarni o‘z ichiga olgan.

Turkiston o‘lkasi aholisining turmush tarzi, urf-odatlari to‘g‘risidagi «Turkiston albomi» alohida o‘rin egallaydi.

Respublika tarixi bo‘yicha XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragidagi o‘lkashunoslik mavzusidagi adabiyotlar, birinchi Turkiston litografik, vaqtli nashrlari, qo‘lyozma kitoblar kolleksiyasi, muqaddas kitob–Qur‘onning turli nashrlari tadqiqotchilar uchun katta qiziqish uyg‘otadi. Kutubxonada qadimiy rus kitoblaridan XVI asr matbaa san‘ati yodgorligi, Ivan Fedorov tomonidan 1581 yilda Ostrog shahrida bosilgan «Ostrojskaya bibliya» kitobi, 1647 yilda Moskvada cherkov-slavyan shrifti bilan bosilgan dunyoviy mazmundagi «Ucheniye i xitrost

ratnogo stroyeniya pexotnix lyudey» birinchi rus kitobi, Petr davri kitoblari—Leontiy Magnitskiyning «Arifmetika»si (1703 yil), Buyuk Petr davri «Xmochnovskaya rukopis» va boshqalar mavjud. Gʻarbiy Yevropa kitoblarining nodir kolleksiyasida 1489 yilda Nyurnbergda bosilgan «Devyataya Nemetskaya bibliya» inkunabuli, B.Erbeloning 1697 yilda Parijda nashr qilingan «Vostochnaya biblioteka»si mavjud.

Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahoutdin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Bobur asarlari kutubxona fondida koʻz qorachigʻ idek saqlanmoqda. Choʻlpon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, Gʻ.Gʻulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari, rus adiblari A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chexov, A.N.Tolstoylarning asarlari bebahodir.

Kutubxona oʻz nashriyot va bosmaxonasiga ega boʻlib, noshirlik hamda matbaa faoliyati bilan shugʻullanadi.

1988- yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999- yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutubxonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davriy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona oʻz maʼlumotlar bazasini yaratmoqda va “Curret Content”, “MicroMedex”, “Medine”, EBSCO va maʼlumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona 1923- yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan. 1948- yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan.

Kutubxona 1956- yildan buyon xalqaro kitob almashuvini amalga oshirib, uning sheriklari jahonning 24 mamlakatidan 30 dan ortiq tashkilotlardir. Kutubxona yirik xalqaro kutubxonachilik tashkilotlari: IFLA, Yevro Osiyo kutubxonalar Assotsiatsiyasi, elektron kutubxonalar va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar xalqaro Assotsiatsiyasining aʼzosi.

Kutubxona koʻplab xalqaro tashkilotlar va jamgʻarmalar bilan, shuningdek, Oʻzbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalarini bilan mustahkam ijodiy aloqalar oʻrnatgan boʻlib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha boʻlgan xalqlarning yaqinlashishiga oʻzining hissasini qoʻshmoqda.

Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga metodik rahbarlik qiladi.

Ushbu tavsiya roʻyxatimizni tuzishdan maqsad foydalanuvchilarni Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxona tarixi, kitob fondi va faoliyati bilan kengroq tanishtirishdir.

Tavsiya roʻyxatimiz kutubxonalarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar hamda keng kitobxonlar ommasiga manba boʻlib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Кутубхоначилик дунёси [Матн]: ахборот бюллетени 5/ 2004 / Тузувчи Ҳ.Маматраимова; масъул муҳаррир А.Турсунов. – Тошкент:Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2004. – 43 б.
2. Буюк ипак йўли – Буюк мулоқот йўли [Матн]: методик библиографик қўлланма / Тузувчи: М.Матмурадова. – Тошкент: Алишер Навоий ном.Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2004. – 87 б.
3. Кутубхона ва маҳаллий органлари ҳамкорлиги [Матн]: методик-библиографик тавсия / Тузувчи: Ф.Рўзиева. – Тошкент: Алишер Навоий ном.Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2004 – 24 б.
4. Нуриддин Абдурахмон Ибн Аҳмад Жомий [Матн]: методик библиографик қўлланма / Тузувчи:У.Тешабоева ; масъул муҳаррир О.Қиличбоев. – Тошкент: Алишер Навоий ном.Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2005. – 32 б.
5. Ахборот-кутубхона ва ахборот-ресурс марказлари ишини ташкил қилиш – Организация работы информационно- библиотечных и информационно-ресурсных центров[Матн]: ҳужжатлар тўплами / тузувчилар: Т.Егорова, О.Қиличбоев; муҳаррирлар: И.Маминова, Ҳ.Маматраимова; масъул муҳаррир: А.Умаров.Тўлдирилган ва қайта ишланган нашри. – Тошкент: Алишер Навоий ном.Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2007. – 172 б.
6. Мустақил Ўзбекистоннинг 2009 йилги муҳим ва унутилмас саналари тақвими [Матн]: тавсия библиографик кўрсаткичи / Тузувчилар: Ф.Рўзиева, Ф.Намозова; Алишер Навоий ном.Ўзбекистон Миллий к-наси,Миллий библиография бўлими. – Тошкент: Алишер Навоий ном.Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2008. – 48 б.
7. Кутубхоначилик дунёси [Матн]: ахборот бюллетени 10/ 2008 / Тузувчи:Ҳ.Маматраимова; муҳаррир: О.Қиличбоев . – Тошкент:Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2008. – 48 б.

8. Буюк келажак бунёдкорлари [Матн]: методик библиографик қўлланма / Тузувчилар: У.Тешабоева, Қ.Нуримова, Ф.Рўзиева; муҳаррир Ҳ.Маматраимова; масъул муҳаррир: О.Қиличбоев. – Тошкент: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2008. – 56 б.
9. Мустақил Ўзбекистоннинг маданий ҳаёти [Матн]: библиографик ахборот / Тузувчи: Қ.Каримова. – Тошкент: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2009. – 43 б.
10. Ўзбекистондаги ахборот-кутубхона муассасалари фаолиятининг Миллий модел стандарти – Национальный моделный стандарт деятельности информационно-библиотечных учреждений Узбекистана [Матн] / Тузувчилар: Қ.Турсунов ва бошқ. – Тошкент: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2019. – 132 б.
11. Силвермен Р. Ўзбекистон кутубхоналари фондини сифатли сақлаш ҳақида тавсиялар [Матн] / Рэнди Силвермен; таржимон Ф.Низомов. – Тошкент: Алишер Навоий ном. Ўзбекистон Миллий к-наси нашриёти, 2022. – 48 б.
12. Ахборот-кутубхона муассасаларида onlayn tadbirlarni o‘tkazish bo‘yicha metodik tavsiyalar [Матн]: ахборот-кутубхона муассасалари учун методик қўлланма / тузувчи: S.Komilova, M.Xoliqova, M.Rustamova; муҳаррирлар G.Dovronova, D.Rasuleva; мас’ул муҳаррир A.Qilichboyev. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2022. – 32 б.
13. Xiva – sharq me’orchiligining javoblari [Матн]: bibliografik ko‘rsatkich / bosh muharrir U.Teshaboyeva; tuzuvchi F.Ro‘ziyeva; muharrirlar Sh.Rahimova, M.Xidoyatova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2022. – 208 б.
14. Ахборот-кутубхона муассасаларида hamkorlik kelishuvlari [Матн] / mas’ul muharrir O.Qanayev; tuzuvchi muharrirlar N.Qo‘chqorova, N.Badirova, S.Kamilova, G.Qobiljonova. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2024. – 32 б.

15. Axborot-kutubxona markazlarining ijtimoiy tarmoqlardagi faoliyati [Matn]: metodik tavsiya / mas'ul muharrir U.Teshabayeva; tuzuvchi G.Dovronova; muharrirlar S.Kamilova, O.Kanayev. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2024. – 52 b.
16. O‘zbekistonda ishlab chiqarish II qism. Yengil sanoat [Matn]: bibliografik ko‘rsatkich / mas’ul muharrir U.Teshabayeva; muharrirlar: Sh.Rahimova, N.Alautdinova, G.Agzamova; tuzuvchilar M.Hidoyatova, Yu Abdullayeva. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2024. – 264 b.

Matbuot nashrlari

1. Умаров, А. О. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси – тарих саҳифалари ва замонавий тараққиёт / А.О.Умаров // Kutubxona. uz. – 2009. - №1. – Б.4-7. – Рез.ингл.
2. Тешабаева, У. Халқаро тажрибалар – соҳа ривожини учун: [Ўзбекистон Миллий кутубхонаси билан Туркия миллий кутубхонаси ўртасидаги ҳамкорлик тўғрисида] / У.Тешабаева // Kutubxona. uz. – 2018. - №3. – Б.1-4. – Рез.ингл.
3. Зайтова, Н. Миллий кутубхона мизнинг нодир китоблар фонди / Н.Зайтова // Kutubxona. uz. – 2020. - №2. – Б.5-8. – Рез.ингл.
4. Кличев, О. Ўзбекистон Миллий кутубхонасидаги XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларига доир газеталардан фойдаланишни такомиллаштириш (Россия давлат кутубхонаси тажрибаси мисолида) / О. Кличев // Kutubxona. uz. – 2020. - №2. – Б.37-39. – Рез.рус,ингл. – Библиогр.: 4 ном.
5. Холов, В. Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нодир нашрлар фонди адабиётларининг мамлакатимиз тарихини ўрганишдаги аҳамияти / В.Холов // Kutubxona. uz. – 2020. - №2. – Б.45-48. – Рез.ингл. – Библиогр.: 11 ном.

6. Раҳматуллаева , С. Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси фондини қайта ташкил этилиши (1991-2017 йиллар) / С.И.Раҳматуллаева // Kutubxona. uz. – 2022. - №2. – Б.44-448. – Рез.ингл. – Библиогр.: 11 ном.
7. Тешабаева , У. Миллий кутубхона фаолиятида турли ресурслар ва халқаро ҳамкорликнинг аҳамияти / У.Тешабаева // Kutubxona.uz . – 2024. – № 1. – Б. 19-24. – Рез. ўзб.ингл. – Библиогр.: 1ном.
8. Комилова, С. Ўзбекистон Миллий кутубхонасида кутубхоначилар билимларини оширишнинг янги инновацион шакллари / С. Комилова // INFOLIB. – 2024. - № 2. – Б. 62-65. – Рез. ўзб. –Библиогр.: 1ном.

Tuzuvchi: M.Qulliyeva.